



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2021 - yil 26 - noyabr

VI-34-75-8-112-K/21

Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 apreldagi 213-F-son farmoyishiga asosan “Mahalla” xayriya jamoat fondi Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi qoshida ochilgan “Sahovat va ko‘mak” jamg‘armasiga tushgan mablag‘larning sarflanishi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 apreldagi 213-F-sonli farmoyishiga asosan tasdiqlangan nizomining 7-bandida jamg‘arma mablag‘larini tasarruf etish Xalq deputatlari tuman kengashi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 apreldagi 213-F-son farmoyishiga asosan “Mahalla” xayriya jamoat fondi Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi qoshida “Sahovat va ko‘mak” jamg‘armasi tashkil etilib hududda mehr-sahovat, oqibat va ximmat kabi yuksak fazilatlarni amalga oshirish maqsadida “Sahovat va ko‘mak“ jamg‘armasi belgilangan nizomiga mablag‘lar asosan yuridik va jismoniy jaxslarning xomiylik xayriyalari va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 apreldagi 213-F-sonli farmoyishiga asosan “Mahalla” xayriya jamoat fondi Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi qoshida “Sahovat va ko‘mak“ jamg‘armasiga tushgan mablag‘larning sarflanishi to‘g‘risidagi masalalar yuzasidan Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 apreldagi 213-F-sonli farmoyishiga asosan “Mahalla” xayriya jamoat fondi Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi qoshida “Sahovat va ko‘mak” jamg‘armasiga tushgan mablag‘lar ajratilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Tuman hokimligining 2021 yil 8 noyabrdagi “Jarqo‘rg‘on tumandagi nogironligi bo‘lgan fukarolarga yangi namunaviy uy-joylar uchun ajratilgan

ipoteka kredit tulovlarini tulashga qiynalib qolganligi sababli karzdorligini tulash uchun “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan moddiy yordam ajratish to‘g‘risida” 19-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi nogironligi bo‘lgan 15 nafar shaxslar tomonidan olingan uy-joy kredit to‘lovlarini to‘lashga qiynalib qolganligi sababli mavjud qarzdorlikni qoplash uchun 44646,0 ming (qirq to‘rt million olti yuz qirq olti ming) so‘m ajratilgan mablag‘ni banklarda kredit to‘lovlarini to‘lash uchun nogironlarga ochilgan hisob raqamiga o‘tkazilishi ilovaga muvofiq ajratilsin.

4. “Mahalla” xayriya jamoat fondi Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi (S.Asatov)ga “Sahovat va ko‘mak” jamg‘armasiga tushgan mablag‘larning sarflanishi Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi muxokamasiga kiritishi va tegishli doimiy komissiya yig‘ilishlarida muhokama etilishini taminlash yuklatilsin.

5. “Jarqo‘rg‘on” gazetasi tahririyati (A.Payanov)ga gazeta saxifalarida “Sahovat va ko‘mak” jamg‘armasi xisobidan ehtiyojmand oilalarga manzilli yordam ko‘rsatilishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Jarqurgon tuman Kengashining Ijtimoiy madaniy rivojlanish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Жарқўрғон туман ҳокими



O‘raqov B. A.

Халқ депутатлари Жарқўрғон
туман Кенгашининг
2021 йил 26 ноябрдаги
VI-34-75-8-112-К/21-сон қарорига
1-илова

№	F.I.Sh	Summa, so'm	Bank nomi	Xisob rakam
1	Poyanova O'rovgul Xoliyarovna	828000	Asaka bank	14903000099079821719
2	Tashbaev Chori Xujamshukurovich	2950000	Asaka bank	14903000999079805719
3	Mirzaev Ural Nomozovich	1245000	Asaka bank	14903000399079686719
4	Samatov Mansur Shodmaxmatovich	1350000	Asaka bank	14903000599079810719
5	Ortikova Saodat Murodullaevna	4530000	Asaka bank	14903000999078396719
6	Ashurova Mukaddas Berdimurotovna	650000	Asaka bank	14903000199078398719
7	Karakulova Firuza Kaynarovna	1270000	Asaka bank	14903000699079801719
8	Bekmuradova Feruza Kurbanovna	4241000	Milliy bank	14901000313230718001
9	Muminov Ortik Xusanovich	3522000	Milliy bank	14901000613230285001
10	Xolboev Tursun Xolmuminovich	3584000	Milliy bank	14901000213358554001
11	Muminova Maxsuda Xuramovna	3523000	Milliy bank	14901000213341465001
12	Kucharova Iroda Bazarovna	4238000	Milliy bank	14901000213230226001
13	Berdiev Gani Chori ugli	4238000	Milliy bank	14901000913341451001
14	Zulpiqorova Muxabbat Sherbaevna	4241000	Milliy bank	14901000613230125001
15	Mamatova Tursuntosh Madievna	4238000	Milliy bank	14901000913230360001
	Jami:	44646000		